

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI IQTISODIY BILIMLARINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY QARASHLAR

Narzulloyeva Feruza Fatulloyevna

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

samieva-1978@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy bilimlarni oshirishning samarali yo'llari, talabalarga aynan ushbu ko'nikmaning kerakligini tushuntirish, pedagoglarimiz aynan iqtisodiyotni kelib chiqish tarixini o'rganishlari, iqtisodiy ta'limotlar tarixi, iqtisodiy qarashlar evolyutsiyasi, iqtisodiy g'oya va nazariyalarning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari haqida so'z boradi. Iqtisodiy ta'limotni vujudga kelishi, to hozirgi zamongacha asosiy iqtisodiy fikr, g'oya, qarash. nazariya va ta'limotlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Kreativ yondashuv, iqtisodiy ta'limot tarixi, iqtisodiy ta'limot, evolyutsiya, g'oya, qarashlar, ko'nikma.

MODERN APPROACHES IN IMPROVING STUDENTS' ECONOMIC KNOWLEDGE BASED ON A CREATIVE APPROACH

Narzulloyeva Feruza Fatulloyevna

Independent researcher of Bukhara State University

samieva-1978@mail.ru

Annotation: This article will talk about effective ways to increase economic knowledge, to explain to students exactly what this skill is needed, that our educators study exactly the history of the origin of the economy, the history of economic teachings, the evolution of economic views, the laws of formation and development of economic ideas and theories. The emergence of economic doctrine, the main economic thought, idea, vision from the present to the present. includes theory and teachings.

Keywords: creative approach, history of economic doctrine, economic doctrine, evolution, idea, views, skills.

KIRISH. Bugungi kunda ta'lim va tarbiya jarayonlarida iqtisodiy bilimlarni oshirishda eng samarali usullarni qo'llagan holda, kreativ yondashib, talabalarga bilim berish zamonning ulkan talabiga aylanib ulgurdi. Pedagog-tarbiyachi faoliyatida kreativ yondashuv asosida individning yangi g'oyalarini yuzaga chiqarishga yordam

berib kelmoqda. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirligini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Psixologlarning fikricha kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror qabul qilish, muammolarni yechish va natijalarini shakllantirish, muammo yechimini topishda bilim va ko'nikmalarni oshirib borishni ifodalaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. О.Д.Никитин fikriga ko'ra "Tadqiqot jarayonida shaxsning uchta tashkil etuvchisi (mental, emotsional, jismoniy) ajratib ko'rsatilgan. Amaliyot darajasida mental, emotsional va jismoniy tashkil etuvchilar orasidagi munosabatni uchta kesishuvchi sohalar shaklida aks ettirish mumkin. Bunday holatda ta'lim olish jarayoni barcha uch sohaga ham ta'sirini o'tkazadi, kreativlikning o'sishi esa, ularning tartibga solingan o'zaro ta'siri va bu komponentlarning integratsiyalashuvi jarayonini o'zida namoyon etadi[1].

Olimlarning fikricha, kreativ boshqarish faoliyatining turlariga ko'ra, funksiyalar quyidagicha bo'ladi. Masalan,

- kreativ boshqarishning iqtisodiy funksiyalari;
- kreativ boshqarishning sotsial funksiyalari;
- kreativ boshqarishning ma'naviy-ma'rifiy funksiyalari [2].

Hozirgi kunda olimlar, tadqiqotchilar tomonidan boshqaruvning ijtimoiy-psixologik usullari keng o'rganilmoqda. Boshqaruvning ijtimoiy psixologik usullari - bu ishlab chiqaruvchi va ayrim shaxslarga ularning ijtimoiy ehti'jlari va psixologik xususiyatlariga ta'sir etish bilan boshqarish vositasidir [4].

Talabalarda jahon iqtisodiy tarixini o'rgatishda yo'nalishlar bo'yicha tushuncha va tasavvurni paydo qilish, mavzuning qisqacha mazmunini bayon etish, iqtisodiy tarixning qisqacha izohini, iqtisodiy tarixning metodlari, predmeti va vazifalarini, iqtisodiy tarixning manbasi va strukturasi tushuntirishda kreativ yondashiladi.

Iqtisodiy bilimlarni oshirishning samarali yo'llari, talabalarga aynan ushbu ko'nikmaning kerakligini tushuntirishda, pedagoglarimiz aynan iqtisodiyotni kelib chiqish tarixiga bevosita murojaat qiladilar. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi iqtisodiy qarashlar evolyutsiyasi, iqtisodiy g'oya va nazariyalarning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. Iqtisodiy ta'limot vujudga kelishi va rivojlanishi tahlili yozuv ixtiro etilgan quldorlik davridan boshlab ijtimoiy taraqqiyotning barcha tarixiy jarayonlarini, to hozirgi zamongacha vujudga kelgan asosiy iqtisodiy fikr, g'oya, qarash. nazariya va ta'limotlarni o'z ichiga oladi.

NATIJALAR. Hozirda kreativ iqtisodiyot barqaror iqtisodiy ahvolga ega va fuqarolarining turmush darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda to'liq mavjud. Misol uchun, Yevropada ijodiy va madaniy sohalar avtomobilsozlik sanoatiga qaraganda deyarli 2,5 barobar ko'proq ish o'rinlarini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Xorijiy ekspertlarning fikricha, bu iqtisodiyot Yevropa yalpi ichki mahsulotining 4,2 foizini tashkil qiladi, uning tarmoqlari esa Yevropada eng ko'p ish o'rinlarini yaratgan sohalar orasida, soni bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. Shuningdek, u inqiroz davrida o'zining barqarorligini etuk salohiyatga ega bo'lgan yosh mutaxassislarni ish bilan ta'minlab isbotladi va Yevropa iqtisodiyotning asosiy tarmoqlardan biriga aylandi [6].

Hozirgi davrda pedagoglarimiz jahonning iqtisodiy rivojlanish bosqichlari, sanoat inqiloblari va iqtisodiy siyosat to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi, har xil davrda turli mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlanishi va jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash xususiyatlarini bilishi hamda ulardan foydalana olishi, talaba iqtisodiy fikrlash, unga tarixiylik, keng ko'lamlilik, realizm berish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Ularning bunday bilim va ko'nikmalarni berishda ta'lim jarayonida turli xil testlardan foydalanishi, savol-javoblar o'yinlarini tashkil etishligi mantiqiy o'ylashga undashlari muhimdir. Shu o'rinda talabalar o'zlari bu haqida ma'lumotlarni yig'ishlari, turli refaratlar tayyorlashlari va buni ochiq bayon etishlari zarur bo'ladi.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari ularda o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, bolalarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishlariga e'tibor qaratadi. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali amalga oshiriladi, shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini-o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish,

shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

MUHOKAMA. Iqtisodiy bilimlarni oshirishda talabalarga muhim va kerakli topshiriqlar berib borilishi zarur. Darslarni kreativ yondashgan holda olib borish uchun tarqatma materiallardan foydalanish, aqliy hujum metodidan foydalanish va uni noodatiy tarzda o'tishi kerak bo'ladi. Pedagog egallanishi zarur bo'lgan tayanch bilimlarni ajratib ko'rsatadi.

Pedagog o'qituvchi talabalarni mashg'ulot davomida bergan javoblari, tartibi, guruh bo'lib ishlashi, bir-birlarini fikrini hurmat qilishi va tinglay olishlari hisobiga olib qo'ygan ballarini eshittiradi. Mashg'ulotdan kutiladigan ijobiy natijalar esa talabalar mashg'ulot davomida zerikmaydilar, fanga qiziqishlari ortadi, erkin fikrlaydilar, guruh bo'lib ishlashga, liderlikka o'zgalar fikrini hurmat qilish va yangi pedagogik texnologiyalarning afzalliklarini o'rganadilar.

Zamonaviy ta'lim barcha turdagi ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi, pedagoglarning ijodkor bo'lishlarini taqozo etmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida innovatsiyalarning ilmfan samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar:

- ilmiy salohiyat tarkibi, jumladan iste'dodli olimlar, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, yuqori malakali injenertexnik xodimlar mavjudligi;
- ilmiy tadqiqot ishlari mavzusining dolzarbligi va amaliy ahamiyati;
- ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun ilmiy adabiyotlar va boshqa axborot resurslari bilan ta'minlanganligi;
- o'tkaziladigan tadqiqotlar va tadqiqotchilarni moddiy rag'batlantirish uchun moliyalashtirish manbalari;
- ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, shuningdek qabul qilingan reja va chora-tadbirlar boshqaruvi va nazoratini amalga oshirish;
- ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni ta'minlovchi ilmiy-texnik va yordamchi xizmat mavjudligi.

XULOSA. Yuqoridagilar bilan bir qatorda bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga mamlakatning kelajakka yo'naltirilgan maqsadlari yo'lida ta'sir ko'rsatuvchi boshqaruv tizimlarini, uning eng ilg'or usullarini joriy etish zarur bo'lib qolmoqda. Bularning barchasi o'z navbatida zamonaviy boshqarishni talab etishidan kelib chiqib, barcha soha va tarmoqlarga zamonaviy menejment 28 va marketingni joriy qilish va bu sohada kadrlar tayyorlash bo'yicha o'rta va uzok muddatli "Yo'l xaritalar"ini ishlab chiqishni taqazo etmoqda [8].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Никитин О.Д Педагогическая модель креативного развития студентов педагогических вузов. Монография. Москва. Издательство «Музыка», 2017.- с.84.
2. Худойбердиева В. Давлат бошқарув органлари тизими ва маъмурий ислохот.–Т.: 2005.
3. <https://staff.tiiame.uz/storage/users/14/presentations/NDRIKO6FPLgKNss7JCBv xPg1bdVqnrJm9mDOvdb.pdf>.
4. L.N. Xalikova, U.R. Mavlonova “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” O‘quv uslubiy qo‘llanma Samarqand-2009 y
5. <https://globalhalal.uz/blog/izhodij-kreativ-iktisodiyot-hakida-eshitganmisiz/>
6. Muminov N. G., Xolmatjonov F.M. “Iqtisodiy tarix” Uslubiy qo‘llanma “Universitet” nashriyoti Toshkent 2022 y
7. Muminov N.G., To‘rayev X.N., Ochilov N.Y. “Iqtisodiy tarix” O‘quv qo‘llanma Toshkent 2018 y
8. Аллен Р. Глобальная экономическая история. Краткое введение. Пер.с англ. М.: Изд-во Института Гайдара, 2013. – 224 с.
9. Самиева Ш., Нарзуллоева Ф. OLIY TALIMDA STRATEGIK FIKRLASH VA KREATIV BOSHQARISH ASOSIDA TALIMNI TASHKIL ETISHNING MUHIM YONALISHLARI: Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna, pedagogika fanlari nomzodi, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti dotsenti Narzulloyeva Feruza Fatulloyevna, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 1. – С. 163-177.